

NUROTA TURKMANLARINING O'RGANILISH TARIXI

*Umarov Anvar Shuxratovich,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

Annotatsiya: XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Nurota tukman urug'lari, tarmoqlari, tarqalish geografiyasi, urug' jamoaga bo'linganligi va etnik tarixi masalalari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Nurota tukman, olti ota qozoyoqli, besh ota mang'ishlov, "chilikli", "qunish", "anna", "sirtsuluv", "qizil", "bog'ojat" Jo'sh, Chuya, Qo'shrabot, Qo'rg'on, Pchot, Ajrim, Pangot, Qovunchi, Zarband, Oqtepa, Turkman-juzlar, qozoyoqli, ko'ztamg'ali, kesovli, jilontamg'ali.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ НУРОТИНСКИХ ТУРКМАНОВ

*Умаров Анвар Шухратович,
Докторант Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова*

Аннотация: В данной статье представлена информация о вопросах этнической истории Туркменских племен в конце XIX – начале XX века, идет дискуссия о ветвях, географии расположения, разделении рода на общины.

Ключевые слова. Нурота, Туркмены, шесть отцов Козайоги, пять отцов Мангышлова, «Чикли», «Кунши», «Анна», «Сирцулув», «Кызыл», «Богожат» Джош, Чуя, Кошработ, Курган, Пчот, Аджрим, Пангот, Мелончи, Зарбанд, Октепа, Туркмен-джузы, казойоги, козтамгали, кесовли, джилонтамгали.

HISTORY OF THE STUDY OF NUROTA TURKMANS

*Umarov Anvar Shukhratovich,
Doctoral student of Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

Annotation: At the end of the 19th – beginning of the 20th centuries, there was a discussion about the clans of Nurot Tukman, branches, geography of distribution, division of the clan into communities, issues of ethnic history.

Keywords. Nurota Tukman, six fathers of Kozayogi, five fathers of Mangyshlov, "Chikli", "Kunish", "Anna", "Sirtsuluv", "Kyzyl", "Bogozhat" Josh, Chuya, Koshrabot, Kurgan, Pchot, Ajrim, Pangot, Melonchi, Zarband, Oktepa, Turkmen-juzlar, kazoyogi, koztamgali, kesovli, djilontamgali.

Kirish. Etnosning ma'lum birliklarga bo'linishi jahon xalqlarida shakllanishida ko'p uchraydigan xodisalardan hisoblanadi. Bu holat o'zbek xalqining shakllanishida ham uchraydi. O'zbeklarda 92 ta urug'ning uchrashi mazkur xodisa bilan izohlanadi. O'zbek urug'larining har biri uzoq va o'ziga xos tarixga ega ekanligi bois o'zbek urug'larining tarkibi, etnik tarixi masalalari ko'plab elshunos olimlarning tadqiqot mavzularidan biri bo'lib kelmoqda. Mana shunday yirik urug'lardan biri Nurota tukmanlari hisoblanadi.

Nurota turkmanlari tarixda Qizilqumdan janubda cho'l va dashtlar vohalar bilan aralash joylashib, ularning asosiy aholisi Dashti Qipchoqdan chiqqan yarim ko'chmanchi turmush tarziga o'tgan o'zbek urug'-qabilalari bo'lgan. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Ikki daryo oralig'ining ichki dasht cho'llarida turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, ko'p sonli o'zbek aholisi orasida orolchalar singari joylashgan. Shu sababdan bu xalqlarning barchasi o'zbeklar bilan aralashishning u yoki bu bosqichida bo'lgan.

Aralashish jarayonlariga g'arbda-turkmanlar, shimolda-qozoqlar, sharqda-qirg'izlar va tojiklar, uyg'urlar tortilgan. Assimilyatsiya davomida ko'p sonli o'zbeklar an'analari, tili keng o'zlashtirilsada, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar va boshqa etnoslar vakillari o'z etnik ongi, etnonimini saqlab kelmoqda. Nurota vohasidagi tojiklar, o'zbek-turkmanlar bunga misol bo'la oladi. Nurota turkmanlarining joylashish hududi XX asrning 20-yillarida Nurota tumanidan chetga chiqib, Zarafshon daryosining o'rta oqimidan (Karmana-Jizzax) Qizilqumgacha bo'lgan tog'oldi kengliklarni qamrab olgan. Bu joylarda shimoli-sharqdan janubi-g'arbga tomon deyarli to'g'ri chiziqlar shaklida uchta: Nurota, Oqtog', Qoratog'lar joylashgan. Birinchisi Qizilqum cho'li bo'ylab o'tib, (eng baland nuqtasi 2169 m.) faqat vohani emas, butun Zarafshon vohasini shimoliy sovuq oqimlardan saqlab turadi[12].

Tarixiy statistik ma'lumotlarga qaraganda, Oqtog' va Qoratog' oralig'idagi qishloqlarda XX asrning birinchi choragida (1925 yilgacha) Nurota turkmanlaridan 30-35 ming kishi yashagan[7]. O'zbek-turkmanlar XX asrning o'rtalarigacha qishloqlarda zich yashab, 2 ta yirik urug'-jamo'a uyushmasi "olti ota qozoyoqli" va "besh ota mang'ishlov"ga bo'lingan. Olti ota qozoyoqlilar: oytamg'ali, qo'shtamg'ali, qonjig'ali, bo'g'ajili, qozoyoqlilarga bo'lingan. Ularning har biri yana 6 tadan kichik urug'-jamoalariga bo'linib "24 ota turkmanlilar" deb ataladi.

Ikkinchi etnik guruhga kirgan urug'-jamoadagilar "besh ota mang'ishlov"lar "chilikli", "qunish", "anna", "sirtsuluv", "qizil", "bog'ojat" qavmlariga bo'lingan. Ular aksari Nurota tog'lari atrofidagi Jo'sh, Chuya, Qo'shrabot, Qo'rg'on, Pchot, Ajrim, Pangot, Qovunchi, Zarband, Oqtepa, Maydonsoy va yana ko'plab qishloqlarda yashaydilar. "Olti ota qozoyoqli"lar yoki tamg'ali turkmanlar Nurota vohasining janubi-g'arbiy qismidan to Qo'ytohgacha, Quvkalla, Garasha, Xo'rob, Ilonli, Qorabdal, Nakrut, Eshmoqsoq, Gulchambar, Bolg'ali, Jarbuloq, Ko'sa, Chag'ishmon (Sag'ishmon), G'ujumsoy, Safarota va yana boshqa qishloqlarda joylashganlar[8].

Turkman-juzlar har biri sakkiztadan urug' jamoaga bo'lingan. Vaxtamg'alilar: qozoyoqli, ko'ztamg'ali, kesovli, bolg'ali, qozoq, jariqbosh, alifli, botesht, jilontamg'alilar, potas, qarg'a, yurga (yurchi), egachi, boloxo'r, ko'sa, taroqli, yas (yassi) urug' jamoalarini tashkil etgan[14].

Etnolog F.Tolipovning yozishicha, 1976 yili Sobiq Ittifoq Fanlar akademiyasining N.N.Mikluxo-Maklay nomidagi antropologiya va etnografiya instituti, Turkmaniston FAning Sh.Botirov nomidagi tarix instituti bilan hamkorlikda Nurota o'zbek-turkmanlarining etnogenezi va antropologik (irqiy) tipini aniqlash maqsadida maxsus ekspeditsiya uyushtiradi. Ekspeditsiya a'zolarining asosiy qismi Nurota turkmanlari dastlab o'troqlashgan: Jo'sh, Chuya, Qo'shrabot, Navkat qishloqlarida, shuningdek, Oqtosh-Chashma qishlog'i ("G'azg'on" davlat xo'jaligida) bo'ladilar. Kichikroq guruh tog'ning janubi va janubi-sharqida joylashgan Quvkalla hamda Garasha qishloqlarida yashaydigan o'zbek-turkmanlar orasida tadqiqotlar olib boradi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, Nurota turkmanlari Kaspiybo'yi turkmanlari bilan etnogenetik jihatdan yagona ildizga ega bo'lishlari bilan birga, ularning yuz, tana tuzilishlari, hatto, tishlarining tuzilishlarida ham o'xshashlik ko'zga tashlanishi ta'kidlangan. Har ikki hudud aholisi tanasining rangi, yuz va ko'z tuzilishidagi hozirgi antropologik farqlar va o'zgarishlariga esa uzoq yillar mobaynidagi tabiiy-geografik muhit hamda iqlimning ta'siri katta bo'lganligi olimlar tomonidan qayd etildi.

Garasha qishlog'ida o'zbek-turkmanlarining "bo'g'ajili" etnik jamoasi tarkibidagi: "joybosar", "buzoq", "mexoyam", "qozoq", "girra" urug'lari yashaydi. Tadqiqotchilarning fikricha, bu etnik jamoalar ajdodlari dastlab Nurota tog' tizmasining markaziy qismida, ya'ni Oqtepa, Qo'shrabot, Jo'sh qishloqlarida yashashgan.

O'zbek-turkmanlarini Garasha qishlog'iga kelib joylashishi borasida ikki xil fikr

mavjud: birinchisi – o‘zbek-turkmanlar tabiiy sharoiti qulay keng yaylovlar, suv manbalari ilinjida uzoq muddat mobaynida, bosqichma-bosqich ko‘chib kelib joylashganlar. Ikkinchisi – qishloqdagi xo‘jalar tashqi dushmanlar – yovdan himoya qilish uchun o‘zbek-turkmanlarini Oqtepa, Qo‘shrabotdan maxsus ko‘chirib keltirganlar.

Dastlab qishloq hududiga qo‘shnamg‘ali va oytamg‘ali urug‘ vakillari kelib o‘rnashgan. Ular ma‘lum vaqt yashaganlaridan so‘ng Qorabdal qishlog‘iga ko‘chib o‘tadilar. Ma‘lumotlarga qaraganda, o‘zbek-turkmanlarini Garashadan Qorabdalgaga ko‘chib o‘tishlariga eshonlar va o‘zbek-turkmanlar o‘rtasidagi kelishmovchilik sabab bo‘lgan. Oqtepa, Qo‘shrabot va Quvkalladan bekjig‘alilar: jovbosar, buzov, girra, qozoq mexoyam, jingichka urug‘lari vakillari Garashaga kelib joylashgan. Ko‘chishga sabab aholi sonining o‘sishi, yaylov va suv manbalari uchun kurashning kuchayishi, etnik mojarolar bo‘lgani ehtimol[11].

O‘zbeklar tarkibidagi turkman-yuz eli tarixining ilmiy jixatdan o‘rganishni XIX asrniig ikkinchi yarmidan, V.V.Radlov, A.D.Grebenkin, A.Xoroshxinlar boshlab berdilar.

Nurota bekligida yashagan turkmanlar haqida ilk bor nemis olimi turkshunos V.V.Radlov 1868 yili yozgan[9].

V.V.Radlov Nurota torligidagi Qoratog‘ tizmasining janubi-g‘arbiy etaklarida joylashgan Oqchop qishlog‘idan boshlab, sharqqa tomon safar qilib, to Krraabdaldan qishlog‘igacha bo‘lgan qariyb 100-150 kilometrlik masofada joylashgan qishloqlarning etnik tarkibi, xo‘jaligi, sug‘orish tizimi va qishloqlarga olib boruvchi yo‘llarni o‘rgandi.

V.V.Radlovning fikricha, Buxoro amirligi xududiga kiruvchi Nurota bekligida yashovchi va uzini turkman deb atovchi gurux; uchta katta uruqqa- Qozoyoqli, qonjig‘ali, bo‘gajiliga bo‘linadi va ular Zarafshon voxasidagi boshqa axoli singari o‘troq yashaydilar.

V.V.Radlovning Nurota tog‘ oldi qishloqlariga qilgan bu safari 1868 yilda Zarafshon voxasining bir qismi Samarkand shaxri bilan birgalikda Rossiya imperiyasi boshqaruviga o‘tgach yuz bergan va bu xudud Zarafshon okrugi deb atalgan[10].

Shu okrugning Kattaqo‘rg‘on uyezdida yashovchi turkmanlarning ba‘zi qabila va urug‘larini A.D.Grebenkin 1872 yilda Moskvada nashr qilingan maxsus to‘plamda “Rus Turkistonidagi o‘zbeklar” nomli makolasida (aniqrog‘i xisobotida) bayon qiladi. Bunda o‘zbekning Kattaqo‘rg‘on uyezdida yashovchi va o‘zlarini turkman deb atovchi el tarkibidagi bo‘gajali qabilasi o‘rda, yastovon, chisg‘osh, ko‘ztamg‘ali, jilontamg‘ali, jomonturkman, jodir urug‘laridan, qonjig‘ali qabilasi iyitbo‘rboy, qiyqim qabilasidan, oytamg‘ali qabilasidan to‘por va sart urug‘laridan tashkil topgan. Qozoyoqli qabilasining tarkibiga qizil-jodraq urug‘ini kiritib, bu urug‘ning qorakisa, boroq, chitmas, qo‘shnamg‘ali nomli to‘rtta tarmoq uruq (mayda uruq)qa bo‘linishini ko‘rsatgan[4].

V.V.Radlov, A.D.Grebenkinlar bilan deyarli bir davrda Turkistonga kelib, o‘zbekning turkman-yuz elini etnografik jihatdan o‘rgangan tadqiqotchilardan yana biri A.Xoroshxindir. U 1876 bilda Nurota tizma tog‘ining shimoliy-sharqiy yonbag‘irlarida yashovchi va o‘zlarini turkman deb atovchi aholining ayrim urug‘lari xaqida qisqa ma‘lumotlar yozib qoldirgan. Bu ma‘lumotlar ichida turkmanlarning XII asr o‘rtalarida Sirdaryoning o‘ng qirg‘og‘idan, kozirgi Turkiston shaxri atrofidan ko‘chib kelish sabablarini bildiruvchi qiziq bir tarixiy rivoyat xam bor.

Unda aytilishicha, XII asr o‘rtalarida turkmanlarga og‘a-ini Oqmon va Qoramondan biylik kilgan. Ular Turkiston (Yassi) tog‘ atrofida chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lib ko‘chib yurishgan. Birok, tariqat pirlaridan biri bo‘lgan Qul Xo‘ja Axmad Yassaviy bilan ular o‘rtasida o‘g‘irlangan ot tufayli nizo chiqqach, turkman elining biylari Oqman va Qoramondan Turkistonni tashlab Kaspiy buyidagi Bolqon torligiga ko‘chishga majbur

bo'lgan. Ularning ko'chish yo'li Movaraunnaxr orqali o'tgan bo'lib, Nurota tog'ligidan o'tishda ularning bir qismi bu yerlarda kolib ketadi[13].

Podsho Rossiyasi (Chor Rossiyasi) davrida Turkistonga yuborilgan rus tadqiqotchilaridan yana biri M.S.Andreyev bo'lib, u 1916 yilda Nurota tumaniga, uniig shimoli-sharqiy hamda shimol (terskay) tomonidagi qishloqlarga safar qilgan. Safardan maqsad — o'z ko'zi bilan ko'rgan qishloqlarni, aholi sonini, soylarni, kechuvlarni, yo'llarni, buloq suvlarini geografik kartaga tushurish, aholining etnik tarkibini, guruxlarga bo'linishini aniqlash edi va bu uning xisobotlarida qayt etilgan[1]. 1917 yildan keyin ko'p o'tmasdan Turkistonga M.S.Andreyev va I.I.Zarubinlar yuborildi. Bular oldiga xam Turkiston xalqlarini etnik-o'zaro yaqinlik, lingvistik, tildagi tafovutlarva madaniy jixatdan o'rganish maqsad qilingan edi.

SHo'rolar davrida o'zbek-turkmanlarni ilk tadqiq etilishi 1921 yili etnolog M.S.Andreyev tomonidan tashkil qilingan Samarqand ekspeditsiyasi doirasida boshlangan. Olim o'z hisobotida Samarqand viloyatida yashagan turkmanlar o'zbeklarning ta'siriga shunchalik kuchli uchraganki, ular o'zlarini o'zbek qabilalaridan biri deb hisoblashadi, deb yozadi. Ayni paytda turkmanlarni o'zbeklardan jismoniy xususiyatlari, shevalari, xoli gilam to'qishlari bilan farqlanishlariga ham e'tibor qaratadi[2].

Rossiyasi mustamlakachilarining oldidagi eng muhim bo'lgan strategik muammo — yagona (yaxlit) Turkistonni milliy etnik guruxlarga bo'lib tashlab, ular o'rtasida doimiy dushmanlik munosabatlarini kuchaytirishga olib keladigan vosita — davlat chegaralarini o'tkazish edi. Biroq, bu muammo Turkiston xalqlarining tarixan shakllangan milliy tarkibini, urf-odatlarini, xar bir etnik birlikning tarqalish chegaralarini aniqlashni talab qilar edi. Ushbu muammolarni xal qilish maqsadida 1920-1922 yillar davomida Petrograd va Moskva shaharlaridan harbiy injenerlar, topograf-kartograflar, geolog, biolog, geograf, tarixchi, etnograf, sharqshunos, dialektolog-tilshunos, antropolog va boshqa bir qancha mutaxassislar, tadqiqotchilar partiya ko'rsatmasi bplan Turkistonga yuborildi va Turkkommissiya tarkibiga kiritildi.

Turkkommissiya bu nshni cho'zmaslik maqsadida, yaxlit Turkistonni parchalashning, bo'lib tashlashning qo'yidagi rejasini loyixaga qo'shimcha qildi:

1) Turkistonni O'zbekiya, Qirg'iziya, Turkmaniyaga bo'lib yuboruvchi etnografik karta tuzish topshirilsin!

2) Bu uch qismga bo'linishning yoki qushilishning shart-sharoitlari puxta aniqlansin!
13 iyun 1920 y.

Partiyaning maxsus topshirig'i bilan Turkkommissiya tarkibida Turkistonga yuborilganlar orasida M.S.Andreyev va I.I.Zarubinlar xam bor edi. M.S.Andreyev 1921 yilda Samarqand viloyatiga safar qilgan va o'zlarini o'zbekning turkman elidanmiz deb hisoblovchi aholining qishloqlarini borib ko'rib, ularning qanday urug'larga mansub ekanligini yozib qoldirgan[3].

I. I. Zarubin ham Samarqand viloyatining aholisi, ularning soni, etnik tarkibi, xar bir etnik guruhlarning tarqalish chegaralarini aniqlash maqsadida Turkkommissiya tarkibida ish olib bordi. Uning 1920-1924 yillarda Samarkand viloyatida olib borgan ilmiy tekishrish ishlarining xisoboti Leningradda 1926 yilda kitob bo'lib bosilib chiqdi. U o'zining ushbu asarida, o'zbekning turkman elini o'rgangan boshqa tadqiqotchilar orasida birinchi bo'lib, o'zbek turkmaniga nisbatan «nurota turkmani» atamasini qo'llaydi[5]. Bu atamani u Jizzax uyezdining Sintob polostida yashovchi turkmanlarga nisbatan ishlatgan. Uning fikricha, Nurota turkmanlari o'zbeklarga til va turmush tarzi jixatidan yaqin bo'lsa-da, aslida mutloqa mustaqil etnografik guruhdir. Bu asarda yana ularning kelib chiqishlari xaqidagi bir rivoyatni, xamda nurota turkmanlari bilan kaspiybuyi turkmanlarining kelib chiqishlik jihatdan bir-birlari bilan qonqardosh ekanliklari xaqidagi ma'lumotlarni, ham uchratish mumkin.

Nurota turkmanlari urug'-qabila tizimlari va joylashuvlari haqida 1920-1924 yillardagi Butunrossiya aholi ro'yxatlari ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyoni milliy hududiy rayonlashtirish komissiyasi doirasidagi aholi haqidagi bob muallifi I.P.Magidovich o'zbek-turkmanlarni turkmanlardan kelib chiqqaniga shubha bilan qaragan, sababi ro'yxatga olish paytida Nurota turkmanlarining barchasi ona tili deb o'zbek tilini ko'rsatganlar. Millati haqidagi savolga esa o'zbek-turkmanlar deb javob berganlar. Magidovichning shubhasini Nurota va Kaspiyorti turkmanlari ayrim urug' qabilalari nomlari bir xilligi ham yo'qota olmaydi, chunki bu nomlar ayrim o'zbek qabilalarida ham uchraydi. Magidovichning yozishicha, o'zbek-turkman nomli unchalik katta bo'lmagan turkman o'zagi atrofida yangi qabila ittifoqi sifatida shakllanib, uning tarixiy taqdiri turkman qabilalarinikidan o'zgacha kechgan[6].

Shunday qilib, o'zbek turkmanining urug'lari, ularning tili, shevasi, urf-odatlari, tarqalish chegaralari, qishloqlari, shu qishloqlarga olib boradigan yo'llar, kechuvlar, suvlar, buloqlar, xo'jalik kayoti haqidagi ma'lumotlarni yozib qoldirgan besh tadqiqotchi ma'lumotlari ilmiy maqsadni ko'zlab emas, balki g'arazli maqsadni ko'zlab qilingan. Garchi bular Turkistonni bo'lib, parchalab tashlash, ma'muriy topshiriqni bajarish, hisobot uchun to'plangan ma'lumotlar bo'lsa-da, biroq fan uchun zarur ma'lumotlarni uchratamiz. Unda, Nurota turkmanlarining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi etnik tarkibi qisman bo'lsada, o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Андреев М.С. Из поездки в 1916 г. в Нуратинские горы и прилегающую к ним часть Кызыл-Кумов-Восток. №1(5). Ташкент. 1923.

Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 г. – ИтогГО, т. XVII, 1924.

Андреев М.С. Некоторые результаты этнографической экспедиции в Самаркандскую область в 1921 (Доложено в заседании Турк. отд. Р.Г.О. 27/1 - 1922 г.)

Гребенкин А.Д. Таджики. Узбеки. Мелкие народности Заравшанского округа // Русский Туркестан. Сборник, изданный по поводу Политехнической выставки. Вып. V. Статьи по этнографии, технике, сельскому хозяйству и естественной истории. М., 1872// узбеки русский туркестан сборник изданный по поводу политической выставки. Вып. V М., 1872.

Зарубин И.И. Население Самаркандской области, его численность, этнографический состав и территориальное распределение // Тр. Комиссии по изучению племенного состава населения СССР и сопредельных стран. Л., 1926. Вып. 10.

Материалы по районированию Средней Азии. кн. 1. Территория и раселения Бухары и Хорезма. ч.1. Ташкент. 1926.

Мошкова В.Г. Некоторые общие сведения о родопленном составы узбеков, каракалпаков и туркмен // Труды института археологии и этнографии. М. 1950. Вып.2.

Мусаев Н. Нурота тоғлари ёнбағирлари аҳолисининг этник таркибига оид баъзи мулохазалар.//Ўзбекистонда этнодемографик жараёнлар Т., 2005.

Радлов В.В. Из Сибири. О населении Зерафшанской долины. –М., 1989

Радлов В.В. Средняя Зерафшанская долина // Записки Императорского Русского географического общества по отделению этнографии. Т. 6. СПб, 1880.

Толипов Ф. Мозийга бўйлашган маскан. –Т.: Нихол. 2008.

Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. т.6. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2003

Хорошхин А.П. Сборник статей касающихся до Туркестанского края. СПб, 1876.

Dala etnografik ma'lumotlar. Qo'shrobd tumani 2023 y.